



ZAMONAVIY O'ZBEK QISSALARINING QIYOSIY TAHLILI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12587007>

Mo'minova.T.S

*Farg'ona davlat universiteti,
adabiyotshunoslik kafedrasida katta o'qituvchisi, f.f.b.f.d (PhD).*

Abdullayeva.G.V

*Farg'ona davlat universiteti,
o'zbek tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi.*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'zbek adabiyotshunosligida ikki ijodkorning qissa janrida yaratilayotgan badiiy asarlarining janr xususiyatlari hamda yozuvchi uslubiga oid ma'lumotlar

Kalit so'zlar

*qissa janri, manba, mavzu, qahramonlar toifasi, bayon uslubi.
o'rganilgan.*

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ СОВРЕМЕННЫХ УЗБЕКСКИХ

АННОТАЦИЯ

В данной статье в узбекском литературоведении изучены сведения о жанровых особенностях произведений двух авторов в жанре новеллы и писательском стиле.

Ключевые слова

жанр рассказа, источник, тема, категория героев, стиль повествования.

ИСТОРИЙ COMPARATIVE ANALYSIS OF MODERN UZBEKI STORIES

ANNOTATION

In this article, information about the genre features of the works of two authors in the short story genre and the writer's style were studied in Uzbek literary studies.

Keywords

narrative genre, source, theme, category of heroes, narrative style.

XXI asr boshlaridan qissa janrida hayotni aks ettirish, qahramon tanlash, badiiy tasvir va ifodaviylikda o'ziga xos o'zgarishlar yaqqol ko'zga tashlandi. Yangi asr boshlaridan boshlab yaratilgan qissalarda modernizmning o'zlashtirilishini ko'rishimiz mumkin. Darhaqiqat, bungacha yozilgan qissalarda ham modernizm mustaqil yo'nalish sifatida emas, balki uning belgilari uchraydi.



Modernizm mustaqil yo'nalish sifatida yozilgan asarlarda milliy ruh kuchaydi. Oddiy odamlar hayoti, qishloqliklarning orzu-armonlari tahlil qilinadi. Shuningdek, hajviylik yangicha ahamiyat kasb etdi. Bu davrda yaratilgan qissalarda kishilar ko'ziga arzimasdek tuyulgan narsalar ijtimoiy ahamiyat kasb eta boshladi. Insonlarning surati va siyratini boricha tasvirlash alohida xususiyat kasb etdi. Hozirgi kunda nasrning roman, hikoya janrlari singari qissada ham inson ongidagi o'zgarishlar, shaxs taqdiri, ulardagi ijobiy xarakterlar ifodasini tasvirlashga e'tibor qaratilmoqda.

Shu kunga qadar qissanavislikka doir deyarli barcha muammolar o'rganib bo'lingandek ko'rinadi. Ammo davr o'tishi bilan har qanday janr o'zini barqaror tutib turuvchi xususiyatlarini saqlab qolgan holda, birinchi navbatda, adabiy tur va janr qonuniyatining o'ziga xosligiga ko'ra; ikkinchidan esa ijtimoiy-tarixiy muhit va adabiy jarayon bilan chambarchas bog'liq ravishda ichdan yangilanib, o'zgarib boradi. Janr har bir tarixiy davrda, har bir yozuvchi ijodida, shu janrning barcha namunasida yangi-yangi xususiyatlarni namoyon etadi. Shuning uchun ham muayyan bir janr namunalarini – xoh ma'lum bir muammolar doirasida bo'lsin, xoh tarixiy taraqqiyotning turli bosqichlari qiyosida bo'lsin, xoh uslubiy nuqtai nazardan bo'lsin, bu muammolarni o'rganish adabiyotshunoslikning dolzarb muammosi bo'lib qolaveradi.

Erkin A'zamning "Otoyining tug'ilgan yili", "Pakananing oshiq ko'ngli", "Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati", Xurshid Do'stmuhammadning "Nigoh", "Oromkursi", "Katta ko'cha" kabi qissalarida ko'proq monologik qissaxonlik nutq uslubi ko'rinadi. Erkin A'zamning keyingi qissalarida hamda Xurshid Do'stmuhammadning deyarli barcha qissalarida monologik qissaxonlik va ikki ovozli hikoya qilish, ko'p ovozli bayon, ohanglar xilma-xilligi va iboralarning zarbli, ritmik siqqlik uslubi, leksik jihatdan arxaizm va neologizm bilan to'yingan avtor nutqi singari nutq uslublari qo'llanilgan. Xurshid Do'stmuhammad qissalarida Erkin A'zam qissalariga nisbatan ko'p ovozli bayon va ohangning har xilligi-patetik, qo'shiq uslubi ustunlik qiladi. Ma'lumki, ko'p ovozli nutq asosiga qurilgan asarlarga xos muhim xususiyatlardan biri ularning dialogik tuzilishga ega bo'lishidadir. Shu jihatdan olib qaraganda, bu xususiyat adibning "Hijronim mingdir mening", "Men – sensiz, sen – mensiz" qissalariga xosdir. Qissalar bir-birining mantiqiy davomi bo'lib, bosh qahramonlar ikki sevishtan ko'ngilning maktub ko'rinishidagi dialogi asosiga qurilgan.

Hozirgi o'zbek qissachiligi, unda yuz berayotgan janriy izlanish va yangilanishlar yaratilayotgan qissalardagi qamrov ko'lamining kengligi, shakl va mazmundagi yangi jihatlari hamda rang-barangligi bilan istiqlol davri o'zbek adabiyotida o'z o'rniga ega. "Qissa turlari yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarga tayanilgan holda istiqlol davri qissalari mavzu-mundariyasi va qo'yilgan muammo



nuqtai nazaridan quyidagi turlarga ajratildi: 1) biografik; 2) lirik; 3) sarguzasht-detektiv; 4) satirik; 5) esse-qissa; 6) dramatik qissa; 7) kinoqissa; 8) maktub-qissa; 9) monolog-psixologik qissa; 10) urush qissalari”⁸.

Birgina Erkin A’zam “Zabarjad”, “Suv yoqalab”, “Pakana”, “Qarzdor” kabi kinoqissalari, “Jannat o’zi qaydadir” nomli dramatik qissa kabi asarlari bilan qissa janrining turli ko’rinishlarida samarali ijod qilib kelmoqda. Erkin A’zam qissalaridagi hozirjavoblik, shartakilik, asardan ko’zlangan maqsadni lo’nda ifodalab berilishi adibning o’ziga xos uslubidir.

Xurshid Do’stmuhammad qissalari ham tasvirning serqatlamligi, mazmunning kuchi, ruhiy holat manzaralarining rang-barangligi, qolaversa, insonlarning xayoloti va kechinmalarini tasvir obyektiga aylantirib, ularni ko’proq tushunishga va tushuntirishga intilayotganligi bilan farqlanib turadi. Jumladan, adib ijodida “Nigoh”, “Panoh”, “So’roq”, “Oromkursi”, “Kuza...”, “Katta ko’cha” nomli monolog-psixologik qissa, “Hijronim mingdir mening”, “Men – sensiz, sen – mensiz” maktub-qissa, “Yolg’iz” biografik qissa, “Chayongul” sarguzasht-detektiv kabi qissaning mavzu jihatdan turli ko’rinishlari mavjud.

Shuningdek, har ikki yozuvchining qissalarida qishloq hayoti va qishloqlik kishilar obrazini XX asr boshlaridagi qishloqliklardan ongli ravishda farqli ifodalash kuzatiladi.

Qissa haqida har ikki ijodkorning janr yuzasidan o’z qarashlariga egaligi ahamiyatlidir. Erkin A’zamning ta’kidlashicha, “Qissa romandan hissa” nomli adabiy qaydlarida bu janrda “biron-bir tarix, muayyan qahramon yoki qahramonlarning, shuningdek, tevaragidagi kechmishlari, ya’ni qissasi bayon qilinadi”⁹. Yozuvchining aytishicha, “Qissa – bir yoki bir necha qahramonning muayyan bir muammo atrofida boshidan o’tgan voqealar silsilasidan iborat, hikoyaga nisbatan xiyla batafsil ifoda etilgan ayricha bir kechmish tasviridir”¹⁰.

Xurshid Do’stmuhammadning “Qissa – “Roman” ismli akasi, “Hikoya” ismli ukasi panohida shodon hayot kechirib yurgan quvnoq va dilbar qizaloqqa o’xshaydi. Aka va ukasining ijodiy imkoniyatlaridan tortinmay, beistihola va emin-erkin foydalanaveradi. Biroq har bir asar ruhiga-ruhoniyatiga shu qadar tugal va yaxlit ohang-xonish topishga harakat qiladiki, ushbu noyob fazilat qissaning botini va zohirida nur taratib turadi”¹¹, degan fikrlarini keltiradigan bo’lsak, ikki yozuvchining ham qissa haqida o’z qarashi, o’z mulohazasi mavjud. Anglanadiki,

⁸ Эшниязова А. Истиқлол даври ўзбек қиссачилиги ва Хуршид Дўстмуҳаммад ижодининг қиёсий-типологияк тадқиқи. Филол.фанл. б-ча фалсафа доктори PhD дис.автореф. – Тошкент, 2020. – 12- б.

⁹ Аъзам Э. Эрталабки хаёллар // Қисса романдан хисса (адабий қайдлар). – Тошкент: О’zbekiston, 2015. – 268- б.

¹⁰ Ўша асар. – 269- б.

¹¹ Дўстмуҳаммад Х. Қисса. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2021. – Муқова жилдида.



yoʻzuvchilar qissa yoʻzishdan avval janr imkoniyatlarini toʻgʻri anglagan. Shu jihatdan ular qalamiga mansub qissalar oʻzbek adabiyotida har tomonlama mukammalligi bilan ajralib turadi.

Xurshid Doʻstmuhammadning yuqorida keltirilgan fikridan anglash mumkinki, qissa hikoya va roman janrining noyob fazilatlaridan toʻlaqonli foydalana oladi va bu adibning qissalarida yaqqol namoyon boʻlgan. Shuni alohida taʻkidlash joizki, Xurshid Doʻstmuhammad oʻzbek adabiyotida birinchilardan boʻlib, faqat qissalardan tarkib topgan “Qissalar”, “Qissa”¹² nomli kitoblarini nashr ettirgan. Uning oʻziga xosligi shundaki, hech bir yoʻzuvchi oʻzbek adabiyotida shu paytgacha “Qissa” nomi bilan alohida kitob nashr ettirmagan. Ushbu toʻplamga qissa janri boʻyicha yetuk mutaxassis A.Ulugʻov soʻz boshi yoʻzib, toʻplamdan oʻrin olgan barcha qissalarni batafsil va mukammal tahlil qilgan. Unga koʻra, ushbu qissalar XX asrda yaratilgan oʻzbek qissalaridan strukturasi, obrazlari, bayon usuli va adibning mahorati jihatidan tubdan farq qiladi. “Taʻkidlash kerakki, X.Doʻstmuhammad hikoya, qissa, romanlarining “choki” sezilmaydi. Ularda boʻsh, salqi oʻrinlar, asoslanmagan, unutib qoʻyilgan nuqtalar deyarli koʻrinmaydi. Adibning asarlari yaxlit ohangga asoslanishi bilan diqqatni tortadi”¹³. Kitobdan oʻrin olgan barcha qissalarning mavzu, gʻoya, syujet, kompozitsiya, xarakter, qahramon, konflikt, tasvirlar xilma-xilligini oʻzida birlashtiruvchi asosiy masala his-tuygʻu, kechinmalarning muhimligidir.

Umuman olganda, “ijodkorning voqelikning yangi qirrasini badiiy kashf etishida, yangi xarakterlar va yangi insoniy munosabatlarni, zamonning bosh, ilgʻor tendensiyalari va yuksak ideallarini obrazli ifodalash hamda bularga kitobxonlarni ishontira bilish, maftun eta bilish usulidan uning oʻziga xos uslubi shakllanadi”¹⁴. Xulosa qilib aytganda, Erkin Aʼzam va Xurshid Doʻstmuhammad qissalaridagi insonning feʼl-atvorini boricha aks ettirish, inson ruhiyatidagi murakkabliklarni tadqiq etish, yangi inson obrazini tadqiq etishda jahon adabiyoti anʼanalarini sintez qilish, inson va jamiyat oʻrtasidagi muammolarni kinoya usulida ochib berish, inson qalbidan oʻtayotgan kechinmalarni ramziylik usullarida aks ettirilishi qissa janrining yangicha tamoyillarini boyitishga xizmat qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Аъзам Э. Эрталабки хаёллар // Қисса романдан хисса (адабий қайдлар). – Тошкент: Оʻzbekiston, 2015. – 268- б.

¹² Дўстмуҳаммад Х. Ўша асар. – 798- б.

¹³ Дўстмуҳаммад Х. Қисса. // Қирқ йил қиссалари // Сўз боши – Тошкент: Янги аср авлоди, 2021. – 6- б.

¹⁴ Мамажонов С. Лирик олам, Эпик кўлам. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – 311- б.



2. Дўстмуҳаммад Х. Қисса. // Қирқ йил қиссалари // Сўз боши - Тошкент: Янги аср авлоди, 2021. - 6- б.
3. Дўстмуҳаммад Х. Қисса. - Тошкент: Янги аср авлоди, 2021.
4. Эшниязова А. Истиклол даври ўзбек қиссачилиги ва Хуршид Дўстмуҳаммад ижодининг қиёсий-типологик тадқиқи. Филол.фанл. б-ча фалсафа доктори PhD дис.автореф. - Тошкент, 2020. - 12- б.
5. Мамажонов С. Лирик олам, Эпик кўлам. - Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. - 311- б.